

**INSON QADRINI ULUG‘LASHGA QARATILGAN
ISLOHOTLAR: ODIL SUDLOVGA ERISHISHDA MEDIATSIYA
INSTITUTINING AHAMIYATI**

Shodiyeva Irida Soatmurod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti talabasi

E-mail: shodiyevairisa@gmail.com

ORCID: 0009-0007-4908-1234

Annotatsiya: mazkur maqolada odil sudlovga erishish uchun inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan islohotlar xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, fuqarolarning buzilgan huquqlarini tez va samarali hal qilinishini ta’minlash uchun nizolarni bartaraf etishning muqobil usullarini, jumladan mediatsiya institutini qo‘llash orqali ularni sudgacha hal qilish mexanizmlarini amalga tatbiq etish masalalariga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: sud tizimi, sudlar faoliyati, odil sudlov, islohotlar, nizolarni muqobil hal qilish, mediatsiya instituti, mediator, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jahon tajribasi.

Аннотация: в данной статье рассматриваются реформы, направленные на повышение человеческого достоинства в целях достижения справедливости. Также уделяется внимание вопросам реализации альтернативных методов разрешения конфликтов, в том числе механизмов их досудебного разрешения с использованием института медиации, в целях обеспечения быстрого и эффективного разрешения нарушенных прав граждан.

Ключевые слова: судебная система, деятельность судов, правосудие, реформы, альтернативное разрешение споров, институт медиации, медиатор, права и свободы граждан, мировой опыт.

Abstract: this article discusses reforms aimed at enhancing human dignity in order to achieve justice. Also, attention is paid to the issues of implementation of alternative methods of conflict resolution, including mechanisms of their pre-trial resolution by using the mediation institute, in order to ensure a quick and effective resolution of the violated rights of citizens.

Key words: judicial system, activity of courts, justice, reforms, alternative dispute resolution, mediation institution, mediator, rights and freedoms of citizens, world experience.

KIRISH

Har bir huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri bu odil sudlovni amalga oshiruvchi sud tizimining mavjudligidir. Chunki aynan sud hokimiyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatda huquqiy tartibotni o‘rnatishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham har bir demokratik davlat o‘z oldiga sud tizimini takomillashtirish va uning erkinligini ta’minlashni maqsad

qilib qo‘yadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimida olib borilayotgan tub islohotlar ham shular jumlasidandir.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmoni doirasida sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasining tasdiqlanishi mamlakatimiz taraqqiyotining sud tizimidagi yangi o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Mazkur strategiya orqali sud hokimiyati mustaqilligini hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash bilan bir qatorda fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish kerakligi ham belgilab qo‘yildi. Shuningdek, sud tizimini “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida shakllantirish, ya‘ni uni xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga alohida e‘tibor berishi yuzasidan hamda adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, ayniqsa, tadbirkorlarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, va eng muhimi, har bir shaxs sud va sudyalarning siymosida o‘zining ishonchli himoyachisini ko‘rishiga erishish kabi muhim vazifalar e‘tibor markaziga qo‘yildi.

MATERIAL VA METODLAR

Maqolaning metodologik asosini umumiy ilmiy usullar (tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, prognozlash, funktsional) hamda xususiy ilmiy usullar (tizimli, mantiqiy, tarixiy-huquqiy, qiyosiy tahlil, huquqiy statistika) tashkil qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ma‘lumki, hozirda nizolarni muqobil hal qilish usullari hakamlilik, muzokaralar va mediatsiya bo‘lib, ular zamonaviy sudlov tizimida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ya‘ni, Rossiya federatsiyasi Oliy arbitraj sudi raisi V.F. Yakovlev ta‘kidlaganidek: “Nizolarni hal etishning muqobil usullarini joriy etish, sudning o‘zida yarashuv tartib-qoidalarini kengroq qo‘llash, kichik va nisbatan sodda ishlarni ko‘rish tartibini soddalashtirish”²⁹ zarurati mavjud. Shu boisdan milliy huquq tizimiga ham aynan mediatsiya institutini joriy etish va uning faoliyat doirasini kengaytirish odil sudlov tizimidagi tub o‘zgarishlardan biri bo‘lishi tabiiy, albatta.

Agar ushbu usulning vujudga kelish tarixiga nazar tashlasak, u XX asrning ikkinchi yarmida AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda rivojlana boshladi va dastlabki mediatorlar oilaviy munozaralarni hal qilishdagina ishtirok etishgan³⁰. Ammo hozirga kelib fuqarolik nizolaridan bo‘lmish oldi-sotdi shartnomasi, mulk ijarasi, pudrat, yuk tashish, sug‘urta, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, intellektual mulk, vorislik huquqi, chet el elementi bo‘lgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar kabilarda asosiy rol o‘ynamoqda.

TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

¹ Sm. V Vserossiyskiy syezd sudey 27-28noyabrya 2000g. Doklad Predsedatelya Visshego Arbitrajnogo Suda Rossiyskiy Federatsii V.F. Yakovleva // Vestnik Visshego Arbitrajnogo Suda Rossiyskoy Federatsii. 2001. № 1. S. 14.

³⁰ Kucheryavaya N, doctor of legal sciences, professor Law and duty. 2017. Available at: www.huquqburch.uz

Mediatsiya tushunchasiga ta’rif berganda turli huquqshunos olimlarning qarashlari va fikrlarini o’rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Sh.M. Masadikov mediatsiyani taraflarga o’zaro maqbul kelishuvga erishishiga ko’maklashuvchi va qaror chiqarish huquqiga ega bo’lmagan betaraf mediator yordamida ular o’rtasidagi nizoni hal qilish usuli sifatida qarasa, A.Y. Konnov mediatsiyani muzokara sifatida ko’radi. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi “Mediatsiya to’g’risida”gi Qonundagi ta’rifga qaraydigan bo’lsak, ushbu Qonun 3-moddasiga ko’ra “mediatsiya - kelib chiqqan nizoni taraflar o’zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko’magida hal qilish usuli” hisoblanadi. Demak, umumiy olganda mediatsiya tushunchasi yoki umuman mediatsiya instituti odil sudlov, ya’ni sud tizimidagi eng katta o’zgarishlardan biri bo’lib, u orqali fuqarolarning huquqlari buzilgan hollarni tezkorlik bilan hal qilish, ortiqcha ovvoragarchiliklarning oldini olish imkoni mavjuddir. Shu sababli ushbu usuldan foydalanish O’zbekistonda ham fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda, desak ham mubolag’a bo’lmaydi.

Chunki mediatsiyaning ahamiyati va roli nihoyatda salmoqli. Buni quyidagicha farqlashimiz mumkin. Masalan, agar biror vaziyat yuzasidan ikki tomonlama nizo yuzaga keldi. Agar ushbu muammoni yechish uchun sudga murojaat qilinsa, sudyani o’zlari tanlash imkoniga ega bo’lmaydi, ammo mediatsiyada bu ikki tomonning xohish-irodasiga bog’liq bo’ladi. Yoxud vaqt masalasida mediatsiyada suddan farqli o’laroq ko’p vaqt talab qilinmaydi, balki qulay vaqtni har ikki taraflar kelishgan holda belgilaydilar. Eng asosiysi, sudda bir tomon foydasiga qabul qilinadigan qaror mediatsiyada muzokara orqali barchaning manfaatlariga asoslanadi. Demak, O’zbekistonda mediatsiya institutining faoliyat doirasini kengaytirish fuqarolar hamda tadbirkorlarga o’z huquq va qonuniy manfaatlarini nafaqat sudlarda himoya qila olishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, balki ungacha ham muzokara orqali nizolarini mustaqil hal qilish imkoniyatini taqdim etish, unda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to’laqonli ro’yobga chiqarish, shuningdek, xolislik prinsipini amalda ta’minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish ham ko’zda tutilgandir. Shuning uchun ham mediatsiya tinchlik va zo’ravonliksiz madaniyatni aks ettiruvchi eng yuqori qadriyat sifatida tan olib kelinmoqda.

Xorijiy tajribaga qaraydigan bo’lsak ham har bir rivojlangan davlatda mediatsiya instituti mavjud. Mojaro(konflikt)larning yangidan yangi shakllarini hal qilishda ham ushbu usuldan keng foydalanib kelinmoqda. Eng e’tiborli jihati esa mediatsiya nafaqat milliy qonunchilik tizmi bilan, balki xalqaro hujjatlar bilan ham tartibga solingani nizolarni hal qilishining muqobil usullari jahon miqyosida ham ahamiyatli ekanligidan dalolatdir. Masalan, 2002-yilda Birlashgan millatlar tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo’yicha komissiyasi (YuNSITRAL) tomonidan qabul qilingan “Xalqaro tijorat kelishtiruv protsedurasi haqida”gi namunaviy Qonun yoki 2008-yilda Yevropa parlamenti va Yevropa Ittifoqi Kengashi qabul qilgan “Fuqarolik va tijorat ishlaridagi mediatsiyaning ayrim jihatlari haqida”gi Direktiva kabilar bunga misol bo’la oladi. Shuningdek, mediatorlar uchun axloq qoidalarini belgilab beruvchi “Mediatorlar uchun Yevropa axloq kodeksi” ishlab chiqilgani kimlar mediator bo’lishi mumkin yoki nizolarni hal qilishda mediator o’zini qanday tutishi kerak, kabi

savollarga o'rin qoldirmaydi. Agar statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, AQShda mazkur protseduradan o'tgan ishlarning 95 foizi sud muhokamasigach yetib bormagan bo'lsa, Germaniyada mediatsiyaning ko'rsatkichlari katta taassurot qoldirgan, ya'ni 90 foizdan ko'proq muzokaralar taraflarning kelishuv bitimi bilan yakunlangan. Shuningdek, Buyuk Britaniyada 90-95 foiz nizoli holatlar sud muhokamasigacha hal etilib, Yevropada mediatsiyaning samaradorligi o'rtacha 40-80 foizini tashkil etganini ko'rishimiz mumkin³¹.

Xo'sh mediatsiya protsedurasi jahonda ko'proq qaysi sohalarda foydalaniladi, degan savolga ham javob berib o'tsak:

- Amerika Qo'shma Shtatlarida iqtisodiyot, biznes hamda siyosat kabi sohalarda ushbu usul keng qo'llaniladi, hattoki sud jarayoni boshlanishidan oldin ham tomonlarga o'zaro kelishib olish taklifi beriladi;

- Germaniyada esa oilaviy mediatsiya, jumladan, bolalar tarbiyasiga oid bo'lgan nizolarni hal qilish mediatsiya bilan amalga oshirilishini uchratish mumkin;

- Buyuk Britaniyada ko'pchilik o'z nizolarini mediatsiya orqali hal qilishni Afzal ko'radi. Chunki mediatsiyani xohlamagan tomonga sudda g'olib bo'lishidan qat'i nazar sud xarajatlari to'liq yuklatiladi. Shuning uchun ham deyarli har qanday nizolarda mediatsiya protsedurasi amalga oshiriladi.

Demak, yuqoridagi tahlillar asosida mediatsiya institutining joriy etilishi va u orqali hal qilinishi mumkin bo'lgan nizolar doirasining kengayishi fuqarolarning huquq va manfaatlariga hech qanday putur yetkazmaydi, balki, aksincha, ularga bir necha qulayliklarni yaratadi. Buni jahon tajribasida keng qo'llanilishidan ham bilib olish mumkin. Shu sababli milliy qonunchiligimizga ham mediatsiya instituti tatbiq qilingandir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, asosan, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarida, jumladan, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarga bog'liq bo'lgan, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarni amalga oshirish yuzasidan esa shartnoma va shartnomadan tashqari majburiyatlarni hamda boshqa mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarda tomonlarga ularni sudgacha hal qilish usullarini qo'llash imkoni berilgan. Ya'ni har bir sud jarayoni boshlanishidan oldin har ikki tomonga kelishib olish taklifi beriladi (faqat ushbu jarayonda uchinchi shaxslar manfaatiga putur yetkazilmagan bo'lishi lozim). Maslaan, oilaviy munosabatlarda ham ushbu holat kuzatiladi. Nizolashayotgan taraflar: er va xotinga nikohdan ajrashish masalasi yuzasidan yoxid mol-mulkni bo'lib olishda o'zaro kelishib olish uchun vaqt beriladi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 40-moddasining 2-qismiga ko'ra, nikohni sud tartibida ajratishda, sud ishning ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotonga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli ekanligi belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, mediatsiya mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni, xususan, mehnat shartnomasidan, shuningdek, jamoalarga doir mehnat nizolarini hal etishda ham qo'llanilishi mumkin. Ya'ni bunda kelishuv xodim va ish beruvchiga birday foydali bo'ladi: is beruvchi o'z ishchanlik obro'sidan tashvishlanmasa, xodim esa o'z vaqti va pulini sud instansiyalaridan o'tishga sarflamaydi. Xodim va ish beruvchi kelishmovchiliklarni o'zaro hal etib va kelishuv

³¹ Yakubova D.Sh. Mediatsiya: nizolarni hal qilishning muqobil usuli (uslubiy qo'llanma). –Toshkent, 2020, 75-bet.

bitimiga erishish kelgusida mehnat munosabatlarini davom ettirishiga ham asos hisoblanadi. Zero, mediatsiyaning maqsadi ham aynan taraflar o‘rtasida uzoq davom etadigan munosabatlarda bo‘lgan nizolarni hal etish va bu orqali mediator yordamida erishilgan qarorlar asosida taraflarning manfaatlari va kelajakdagi hamkorligiga putur yetkazmaslikdir.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, birinchidan, nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri bo‘lmish mediatsiya instituti- tomonlarning va boshqa shaxslarning yuzaga kelgan nizoni hal qilish yuzasidan nizoni suddan tashqari hal etish yoki kelishuv uchun muzokara o‘tkazish demakdir. Ikkinchidan amaldagi qonunchiligimizga muvofiq mediatsiya instituti nizolarni hal qilishning tezlashtirib, ham vaqt tomonlama, ham moliyaviy jihatdan foyda beradi. Tomonlar o‘rtasidagi munosabat maxfiylik prinsipi asosida amalga oshirishini kafolatlaydi. Ilgaridan mavjud bo‘lgan oilaviy, tadbirkorlik muqosabatlar saqlanib qolishiga yordam beradi. Eng asosiysi davlat organlari yoki sudda ish hajmi kamaygan holda odil sudlovni amalga oshirishda kichik ishlar bilan behuda vaqt sarflash holatlarining oldi olinadi. Shuning uchun ham ushbu jarayonda, ya’ni mediatsiya institutini tatbiq etishda nafaqat oila sohasida, balki fuqarolik huquqining boshqa tarmoqlarida ham ushbu amaliyotni tatbiq etishni taklif etaman. Chunki ma’lumki, fuqarolik huquqi xususiy munosabatlarga taalluqli bo‘lib, ikki yoki undan ortiq teng huquqli shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, fuqarolar o‘z mukiy hamda nomulkiy munosabatlarini bimalol kelishuv orqali amalga oshirish imkoniyati mvjudligini anglatadi. Zero, bu muzokara yo‘li bilan hal qilish yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek har ikkala tomon uchun manfaatli bo‘lgan holda nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini ham faollashuviga hamda O‘zbekiston Respublikasida odil sudlovni amalga oshirishda “inson qadri uchun” degan tamoyilning amalda o‘z isbotini topayotgani bilan izohlanadi.

REFERENCES:

1. Sm. V Vserossiyskiy syezd sudey 27-28noyabrya 2000g. [Doklad Predsedatelya Visshego Arbitrajnogo Suda Rossiyskiy Federatsii V.F. Yakovleva] Vestnik Visshego Arbitrajnogo Suda Rossiyskoy Federatsii. 2001. no.1, pp. 14.
2. Kucheryavaya N, doctor of legal sciences, professor Law and duty. 2017. Available at: [www. huquqburch.uz](http://www.huquqburch.uz)
3. Yakubova D.Sh. Mediatsiya: nizolarni hal qilishning muqobil usuli [uslubiy qo‘llanma]. Toshkent, 2020. 75b.